

## ONA TILI TA'LIMIDA MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIZIMI: TASNIF, XUSUSIYAT VA TAHLIL

**Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi,**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada ona tili darslarida qo'llaniladigan lingvistik mashq, topshiriqlar hamda ularning tasniflanishi bo'yicha ilmiy-metodik qarashlar o'rganilgan. Mashq va topshiriqlarning o'ziga xos xususiyatlari, farqli jihatlari ochib berilgan. Umumta'lim maktablari "Ona tili" darsliklaridan mashq, topshiriq namunalari keltirilib, tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** mashq, topshiriq, lingvistik ko'nikma, nutqiy ko'nikma, takrorlash, mustahkamlash, ijodiy topshiriqlar.

**Аннотация.** В статье рассматриваются научно-методические подходы к лингвистическим упражнениям, заданиям и их классификации, применяемым на уроках родного языка. Раскрываются специфические особенности и отличительные черты упражнений и заданий. Приводятся и анализируются примеры упражнений и заданий из учебников "Родной язык" для общеобразовательных школ.

**Ключевые слова:** упражнение, задание, лингвистические навыки, речевые навыки, повторение, закрепление, творческие задания.

**Abstract.** This article examines the scientific and methodological approaches to linguistic exercises, tasks, and their classifications as applied in native language lessons. It reveals the specific and distinctive features of these exercises and tasks. Examples of exercises and tasks from "Native language" textbooks for general secondary schools are provided and analyzed.

**Keywords:** exercise, task, linguistic skills, speech skills, repetition, reinforcement, creative assignments.

**Kirish.** Didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblangan nazariya va amaliyot birligi tamoyili ta'lim jarayonida amaliyot va nazariyani bir-biridan ajratmagan holda parallel olib borishni, har bir o'rganilgan ilmiy-nazariy ma'lumotni amaliy ishlar vositasida mustahkamlashni, nazarda tutadi. Til ta'limi bevosita amaliyot bilan bog'liq bo'lganligi tufayli ona tili darslarini mashq va topshiriqlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ona tili ta'limida mashqlar bilan ishlash alohida ilmiy va metodik mohiyatga ega. Mashq u yoki bu mavzu doirasida bilim, faoliyat usullarini bir xil o'quv sharoitida bajarishga oid o'quv topshirig'idir. Mashqlarni bajarish jarayonida bilimlar esga tushiriladi; bilim, faoliyat usuli o'quv holatiga tatbiq qilinadi; subyekt (shaxs) faoliyati takomillashtiriladi. Shu boisdan darsliklarda har bir mavzuga doir bir necha mashqlar beriladi va dars jarayonida mashqlar bajartirishga alohida e'tibor qaratiladi.[1]

**Adabiyotlar tahlili.** Ona tili ta'limida mashq va topshiriqlar masalasi ko'plab metodist olimlar tomonidan tadqiq etilgan. O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov va A.Hamroyevlar lingvistik mashqlarning turlari hamda ta'lim jarayonidagi vazifalarini yoritganlar. M.Saidov mashq va topshiriq tushunchalarini farqlab, ularning tafakkurni rivojlantirishdagi o'rini ko'rsatgan. G'.Hamroyev esa mashqlar nutqiy kompetensiyani, topshiriqlar esa lingvistik kompetensiyani shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. G.Ahmedova savol va topshiriqlarni bilimlarni mustahkamlash, tafakkurni rivojlantirish va

amaliy qo'llashga yo'naltirilgan turlarga ajratadi. Ushbu tadqiqotlar mashq va topshiriqlarning ona tili ta'limidagi muhim didaktik vosita ekanligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** This study is based on a qualitative and comparative analysis of scientific, pedagogical, and methodological literature related to exercises and tasks in native language education. The research examines theoretical approaches to the classification, functions, and characteristics of linguistic exercises and educational tasks. In addition, examples taken from Grade 8 native language textbooks were analyzed to identify their structural features, educational objectives, and role in developing linguistic and communicative skills. Methods such as descriptive analysis, comparative analysis, classification, and interpretation were employed to evaluate the effectiveness and pedagogical significance of exercises and tasks in the teaching process.

**Tahlillar va natijalar.** Lingvistik mashqlar bir qator vazifalarni bajaradi:

*Yangi o'quv materialini idrok etish.* Bu jarayonda qo'llanilgan mashq o'quvchilar uchun bilimlarni faol o'zlashtirishga xizmat qiladi.

*Yangi o'quv materialini mustahkamlash.* Bu jarayonda ishlatilgan mashq o'quvchi faoliyatida o'rganilgan bilim bilan uni (bilimni) nutq amaliyotida qo'llash o'rtasida dastlabki bog'lanishni hosil qilish vazifasini bajaradi.

*O'tganlarni takrorlash.* Bu jarayonda foydalanilgan mashq o'quvchi faoliyatida o'rganilgan bilim bilan faoliyat usullari o'rtasida mustahkam aloqadorlikni o'rnatish uchun xizmat qiladi. Bilim va faoliyat usullari o'rtasida aloqadorlikni o'rnatish o'z navbatida ko'nikmalarning malaka darajasiga ko'tarilishiga, o'quvchi faoliyatining jadallashuviga olib keladi.

*Bilim, malakalarni umumlashtirish.* Ta'lim jarayonining bu bosqichida o'rganilgan bilimlar tizimga keltirilib, umumiy xulosa chiqariladi, malakalar yanada yuqori darajaga geniralizatsiya bosqichiga ko'tariladi. Binobarin, umumlashtirish jarayonida qo'llanadigan mashqlar o'quvchi faoliyatida katta mavzu yoki bo'lim bo'yicha o'rganilgan bilimlarni umumlashgan xulosalar, malakalarni yanada takomillashgan faoliyat usullari darajasiga olib kelish vazifasini o'taydi.[2]

Manbalarda mashq, topshiriq, savollarning turlari bir necha xil tasnif asosida keltiriladi. G.Ahmedova o'z monografiyasida darsliklardagi savol va topshiriqlarni uch guruhga bo'lib ko'rsatadi.[3]

Birinchi guruhga bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirilgan narsalarni esga tushirish va malakalarni shakllantirishga doir savol va topshiriqlar kiradi.

Ikkinchi guruh tafakkurni o'stiradigan (mustaqil ishlashni, taqqoslash, umumlashtirish, baholash, xulosa chiqarish, bilimlar tizimini mustahkamlash, aniqlash va tajribaga solishni talab qiladigan) savol va topshiriqlardan iboratdir.

Uchinchi guruh o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llashga (mustaqil ishlarni bajarish va malakalarni egallashga) doir savol va topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

“Ona tili didaktikasi” kitobida lingvistik mashqlarning quyidagi turlari ajratib ko‘rsatilgan:

1. Nutq shakllariga ko‘ra: evristik, adaptiv, noadaptiv, alternativ, test va algoritm shaklidagi mashqlar.

2. O‘quvchilarning faoliyatiga ko‘ra: O‘rganiladigan bilimlarni esga tushirish yo‘li bilan o‘tkaziladigan mashqlar; o‘quvchilar tafakkuriga mo‘ljallangan mashqlar.

3. Mazmuniga ko‘ra: fonetik, leksik, grammatik, grafik, orfografik mashqlar.

4. Ta‘lim jarayoni bosqichlariga ko‘ra: tayyorlovchi, hamroh mashqlar, mustahkamlash, takrorlash va umumlashtirishga oid mashqlar.

Shuningdek, muallif o‘zgarishsiz bajariladigan, yarim ijodiy hamda ijodiy mashq turlarini ham ajratib ko‘rsatadi.[4]

Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, lingvistik mashq hamda o‘quv topshirig‘i tushunchalari bir-biridan farqlanadi.

Pedagogika ensiklopediyasida mashqqa quyidagicha ta‘rif beriladi:

Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o‘zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko‘p marta takrorlash. Masalan, o‘qish, yozish. Mashq ta‘limda ko‘nikma va malakalar hosil qilishda muhim o‘rin tutadi.[5]

Odatda ona tili darsliklarida yangi o‘quv materialdan oldin o‘quvchilarga amaliy xarakterdagi bir nechta topshiriqlar taqdim etiladi. Ular beriladigan yangi nazariy ma‘lumotlarga o‘quvchilarni tayyorlaydi va mavzuga olib kiradi. O‘quv topshirig‘i o‘qitish va o‘qish ehtiyojiga ko‘ra, o‘quv materialining o‘zgartirilgan shaklidir.

O‘quv topshirig‘i vositasida bolalarning yakka, tabaqalashgan, umumsinf ishlari tashkil etiladi.[6]

Metodist olim G‘.Hamroyev o‘z ilmiy tadqiqotida ona tili darsliklarida mashq va topshiriqlarning bir-biridan jiddiy farqlanmayotganligini, bu esa ona tilini o‘qitishda qiyinchiliklar keltirib chiqarayotganligini ta‘kidlaydi:

Ona tili o‘qitish metodikasida mashq, topshiriq va masala tushunchalari pedagogik kategoriya sifatida farqlangan. Ammo negadir bugungi kungacha talaffuz va imlodagi muammolar kamayish o‘rniga rivojlanishda davom etmoqda. Nutqiy kompetensiyani shakllantirish nuqtayi nazaridan, ayniqsa, fonetika o‘qitishda mustahkamlovchi o‘quv materiallari hisoblangan mashq va topshiriq kategoriyalarini mazmun-mohiyatidan kelib chiqib didaktik jihatdan farqlash va takomillashtirish lozim.

Metodist olim M.Saidov ta‘lim mazmuni sirasida o‘quv topshiriqlarini uch turga bo‘lib, ularni o‘zaro farqlaydi. Jumladan, o‘qituvchilar o‘z ish faoliyatlarida “mashq”, “topshiriq” va “masala” tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini ta‘kidlaydi. Dastlabki ikki atama borasida ona tili o‘qitish metodikasida ikki xil qarash mavjud. G.Azizov, O.Botirov kabilar mashqni topshiriqning bir shakli, deb hisoblasa, Y.G‘ulomov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedovlar uni o‘qitish metodi sifatida talqin qiladilar.[7]

M.Saidov pedagogika fanlari doktori A.G'ulomovning "mashq ham o'quv topshirig'ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli," degan fikriga qo'shiladi va topshiriq mashqning bir bo'lagi, u, asosan, mashqning shartida o'z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etadi.[8]

G'.Hamroyev esa o'z ilmiy ishida topshiriq mashqni o'z ichiga oladi, degan boshqacha yondashuvni ilgari surib, topshiriqlar o'quvchini yo'naltiradi, mashqda bunday xususiyat mavjud emas, mashqlar malaka hosil qilish uchun xizmat qiladi, degan fikrni ilgari suradi:

Mashq muayyan harakat yoki faoliyatni bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg'ulotdan ko'zlangan ko'nikma va malakaga ega bo'lish mexanizmi, topshiriq esa kishining, jumladan, o'quvchining zimmasiga mavzu yuzasidan mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifa. Topshiriqlar, asosan, lingvistik kompetensiyani shakllantirishga, bilim olishga xizmat qiladi, mashqlar esa nutqiy kompetensiyani hosil qiladi. Shuning uchun ularning qo'llanish o'rinlarini ham aniqlab olish juda muhim.[9]

Yuqoridagi qarashlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, mashqlar odatda lingvistik ko'nikmani, topshiriqlar esa ham nutqiy, ham lingvistik ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Mashqlarga qoliplashganlik, takroriylik, shablon asosida tuzilganlik kabi xususiyatlar xos. Ya'ni ularda shakl umumiy bo'lib, mazmun o'zgarib turadi. Topshiriqlar esa takrorlanmas va original bo'lib, ularning vazifaviy ko'lami kengroqligi bilan mashqlardan ajralib turadi.

Quyida umumta'lim maktablari ona tili darsliklaridan mashq va topshiriqlar uchun namunalar ko'rib chiqamiz.

**1. 8-sinf "Ona tili" darsligida berilgan lingvistik mashq turi.**[10] Unda nutqda qo'shimchalarni to'g'ri qo'llash ko'nikmasini rivojlantirish maqsad qilib olingan:

1.21. Berilgan jummalarni namuna asosida tahrirlab yozing.

Namuna: *Ko'chalarning birining nomi o'zgartirildi. / Ko'chalardan birining nomi o'zgartirildi.*

1. O'quvchilarning birining natijasi juda yuqori chiqdi.
2. Xayolingga kelgan g'oyalarning yozib olishni odat qil.
3. Birinchi galda maqsadni to'g'ri qo'yilishi kerak.
4. Do'stim bilan kutubxonaga bordim va bittadan hikoya o'qidik.
5. Sotib olingan kitoblarni tez orada o'qib chiqiladi.

**2. 8-sinf "Ona tili" darsligida berilgan topshiriq namunasi.**[11] Mazkur topshiriq o'quvchilarda yozma nutq, ijodiy hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan.

Berilgan mavzu asosida ijodiy matn yozing. Zamonamiz qahramonlari kimlar?

Yo'riqnoma:

1. Mavzuni o'rganib chiqing.
2. Mavzu haqida ma'lumot to'plang.

3. To'plagan ma'lumotlaringizni saralab oling.
4. Tayanch tushunchalarni yozib chiqing.
5. Mavzuga mos maqol, matal yoki hikmatli so'zlardan foydalaning.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, lingvistik mashqlar va topshiriqlar o'z xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Ularni mavzusi, nutq faoliyati, ta'lim bosqichlarida qo'llanilishi va boshqa jihatlariga ko'ra bir necha turlarga ajratish mumkin. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, izlanuvchanlikka undovchi, ularning ham og'zaki, ham yozma nutqlarini o'stiruvchi mashq va topshiriqlardan foydalanish ona tili darslarining samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tўрабоева М. Алгоритмик машқлар тизимини такомиллаштириш асосида бошланғич синф она тили таълимида узвийликни таъминлаш: пед. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. Автореф. НамДУ – 2020. 11 б.
2. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 138-b.
3. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2013. – 183-b.
4. Ahmedova G. Rusiyzabon o'quvchilar nutqiy muloqot madaniyatini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari. Monografiya – T.: "Fan va texnologiya", 2019. – 39-40-b.
5. Педагогика Энциклопедияси. 2-жилд. –Т.: Ж – М., 2012. – 223-б.
6. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. –130-b.
7. Ҳамроев Ғ. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг методик таъминотини такомиллаштириш: пед. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 11 б.
8. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. ном-ди дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 25 б.
9. Ҳамроев Ғ. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг методик таъминотини такомиллаштириш: пед. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2019. – 11 б.
10. Ona tili. 8-sinf [Matn]: darslik / K.Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2025. – 17-b.
11. Ona tili. 8-sinf [Matn]: darslik / K.Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2025. – 103-b.